

ANDIJON VILOYATI BO'Z TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

Qodirov Shahriddin Najmiddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya

Akademiyasi MSc Moliya talabasi

e-mail: qodirovshahriddin0212@gmail.com

Tel: 998(90)996-46-12

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyat Bo'z tumani 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komissiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

В БОЗСКОМ РАЙОНЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 2021-2023 ГГ. РЕАЛИЗОВАННЫЙ БЮДЖЕТНЫЙ ПРОЦЕСС

Аннотация: В данной статье в 2021-2023 годах анализируется процесс инициативного бюджетирования, объёмы выделенных средств и реализованные проекты в Бозском районе Андижанской области.

Ключевые слова: инициативный бюджет, openbudget.uz, инициатива, голосование, модерация, рабочая комиссия, определение проекта-победителя, «Фонд гражданской инициативы», заключение договора.

INITIATIVE BUDGETING PROCESS IMPLEMENTED IN 2021-2023 IN BOZ DISTRICT OF ANDIJAN PROVINCE

Abstract: In this article, the initiative budgeting process, the amount of allocated funds, and implemented projects of Boz district of Andijan region in 2021-2023 are analyzed.

Key words: initiative budget, openbudget.uz, initiative, voting, moderation, working commission, determination of the winning project, "Citizens Initiative Fund", contract conclusion.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi

ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Tashabbusli budjetlashtirish jarayoni bu mahalliy jamoalar va fuqarolarning o'z hududlarida amalga oshiriladigan moliyaviy resurslar taqsimoti jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta'minlaydigan tizimdir. Ushbu jarayon mahalliy aholi va jamoat tashkilotlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ular uchun muhim bo'lgan loyiha va tadbirlarga byudjet mablag'larini ajratish imkonini beradi.

Tashabbusli budjetlashtirishning asosiy maqsadi shundaki, hududiy rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal etish uchun fuqarolarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilishdir. Bu jarayon orqali:

1. Fuqarolar ishtirokini oshirish: Jamoatchilik va mahalliy aholi o'z hududlaridagi masalalarni hal qilishda qatnashadilar.
2. Shaffoflikni ta'minlash: Byudjet mablag'larining qanday taqsimlanishi va ishlatilishi haqida aniq va oshkora ma'lumotlar taqdim etiladi.
3. Hududiy rivojlanishni rag'batlantirish: Mahalliy aholi tomonidan tanlangan loyihalar, ularning ehtiyojlari va prioritetlariga asoslanib amalga oshiriladi.

Andijon viloyatining Boz tumanida 2021-2023 yillar davomida tashabbusli budjetlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Bu jarayon orqali:

- Mahalliy aholiga o'z ehtiyojlarini aniqlash va muhim loyihalar uchun byudjet mablag'larini taqsimlash imkoniyatini yaratgan.
- Turli jamoat va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan taklif etilgan loyihalar ko'rib chiqilib, amalga oshirilgan.
- Aholining ishtiroki, shaffoflik va hisobdorlik ta'minlangan, bu esa byudjet resurslarining samarali va maqsadli ishlatilishiga olib kelgan.

Tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, shuningdek, mahalliy aholi va tashkilotlarning o'z hududlarini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini va ishtirokini kuchaytiradi.

Adabiyotlar sharhi

Andijon viloyatining Boz tumanida amalga oshirilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning samarali yo'lini ko'rsatmoqda. Boz tumani misolida, fuqarolar o'zlarining hududiy muammolarini hal etish uchun byudjet mablag'larini qanday taqsimlashni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bunda, aholining faol ishtiroki, mas'uliyat va samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynadi. "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" (2021) kitobida Andijon viloyatidagi bu jarayonning ahamiyati va natijalari haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Tashabbusli budjetlashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun mahalliy boshqaruv tizimi va fuqarolar bilan samarali aloqalar o'rnatish zarur. Mahalliy boshqaruvni rivojlantirishga oid ilmiy ishlar (Xaydarov, 2022) tashabbusli

budjetlashtirishni ijtimoiy boshqaruvning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi va uning jamoatchilik bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Andijon viloyatidagi Bo'z tumanida ham mahalliy boshqaruvning yuksalishi, fuqarolarning ishtiroki va tasarruf etish imkoniyatlari jamiyatda o'zgarishlarga olib keldi.

O'zbekistonda 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar (U O'roqov, 2022) shuni ko'rsatadiki, fuqarolar ishtiroki, shaffoflik, va mahalliy aholi manfaatlariga moslashtirilgan budjet resurslari samarali ishlatilmoqda. Andijon viloyatidagi Bo'z tumanida ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qator o'quvlar, seminarlar va treninglar tashkil etilgan.

Bo'z tumanida amalga oshirilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni bir qator ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga olib keldi. Mahalliy aholi o'z hududlarida muhim bo'lgan loyihalar uchun mablag' ajratishda qatnashgan, bu esa ularning hayot sifati va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda ilmiy maqolalar (U O'roqov, 2022) va tahliliy hisobotlarda keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Andijon viloyati Bo'z tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi 1-jadvalda Andijon viloyati Bo'z tumanida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin.. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 1 671 000 ming so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qariyb 5 678 573 ming so'm va 2023-yil 7 533 585,6 ming so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Jadval ma'lumotlar asosida qayd etish mumkinki, 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 5 473 ming so'mni, 2023-yil 713 573 ming so'mni tashkil qilgan.

Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 1 671 000 ming so'mni, 2022-yil 5 678 573 ming so'mga oshganini, 2023-yilda esa 7 533 585,6 ming so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori

(ming so'm)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	5473,0	713 573,0
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 671 000,0	5 678 573,0	7 533 585,6
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 671 000,0	4 965 000,0	7 620 000,0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 665 527,0	4 300 353,0	6 184 976,9
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	-	664 647,0	930 735,0
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	-	713 573,0	627 158,0

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar esa 2021-yil 1 671 000 ming so'mni, 2022-yilda 4 965 000 ming so'mni, 2023-yilda esa 7 620 000 ming so'mni tashkil qiladi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida ko'radigan bo'lsak pul mablag'lar tashabbusli byudjet loyihalariga yildan yilga oshib kelmoqda. Bu esa jamiyat va xalqimiz tomoidan berilayotgan maummo va masalalar ko'rib yechib kelinmoqda.

Quyidagi 2- jadvalda ko'rishimiz mukmkinki: 2021-2023 yillarda taklif etilgan loyihalar soni va ularga ajratilib sarflangan mablag'lar miqdori bilan tanishinib o'tishimiz mumkin.

Tahlil jarayonida 2021-yilda umumiy 7 ta moliyalashtirilgan takliflar soni bo'lgan ammo umumiy sarflangan mablag'imiz 1 665 527,0 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich qolgan 2022 va 2023- yillarga zid hisoblanadi. Chunki, 2022-yil 10 ta va 2023-yil 9 ta loyiha moliyalashtirilgan. Shuningdek 2023-yil 7 620 000,0 ming so'm mablag' sarflangan. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun eng ko'p mablag' ajratilgan.

T /r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilg an takliflar soni			Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda)		
		202 1-yil	202 2-yil	202 3- yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami		7	10	9	1 665	4 965	7 620

					527,0	000,0	000,0
1	Hududiy ichki yo'llar	1		1	169 882,0		1 320 000,0
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	3	6	80 000,0	1 525 000,0	3 850 000,0
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2			300 000,0		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		2	2		1 720000,0	2 450 000,0
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	1		295 495,0	450 000,0	
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	1	1		170 300,0	350 000,0	
8	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)		1			120 000,0	
9	Boshqa tadbirlar	1	2		649 850,0	800 000,0	

2-jadval

**Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida
amalga oshirilgan tadbirlar**

Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash loyihalariga 2021-yilda loyiha uchun ajratilmagan , 2022-yilda 2 ta loyiha uchun 1 720 000 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan. 2023-yilda esa 2 450 000 ming so'm ajratilgan. Quyidagi 3-jadvalda Andijon viloyati Bo'z tumanida fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini ko'rib chiqamiz.

3-jadval

**Andijon viloyati Bo'z tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi
mablag'larining shakllanish manbalari**

(ming so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021- yil	2022- yil	2023-yil 1- chorak
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar			2 386 483	6 000 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		1 676 144	530 879	418 315
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		68 518	303 864
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	335 144	462 361	114 451
	Iqtisod qilingan mablag'lar	1 341 000		175 130
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan			
	PQ-409ga asosan			
	PQ-117ga asosan			
Jami ajratiladigan mablag'lar		335 144	689 800	3 606 340

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi"da Tashabbusli byudjet loyihalari g'oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o'tilingan.

Andijon viloyati Bo'z tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari tahlil qilindi va tahlillar natijasida 2021- yil jami chorakida tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari 1 676 144 ming so'mni tashkil etgan va bu ko'rsatkich boshqa yillarga nisbatan ancha ko'pdir. Aksincha boshqa yillarda jami chorakda esa bu ko'rsatkichimiz past darajani ko'rsatmoqda. 2022- yil Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lari 2 386 483 ming so'mni tashkil etgan, lekin 2023-yilda bu ko'rsatkich 6 000 000 ming so'mni tashkil etgan. Jami miqdorlarga qaraganimizda 2023- yil ko'p mablag'lar ajratilganini ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlari soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
2021-yil			
1.	Ko'chani ta'mirlash uchun	410	170 000,0
2.	Bo'z tumani 1-umumta'lim maktabining sinf xonalarini eshiklarini yengilashgan extiyoj bor. Bundan tashqari sinf xona derazalari juda ham eskirgan	302	80 000,0
3.	Tumandagi 3-MMT atrofini ko'rg'on devor bilan o'rash	3	150 000,0
4.	Tuman xudididagi 8-MMT atrofini ko'rg'on devor bilan o'rash	3	150 000,0
5.	Yangi obod MFY xudidagi Beshgul ko'chasiga ko'cha chiroqlari o'rnatish	2	171 000,0
6.	Tuman markaziga zamonaviy kutibxona qurish	2	650 000,0
7.	Mustaqillik 15 yiliga Qo'rg'oncha ko'chasiga ichimlik suvi chiqarish kerak	2	300 000,0
2022-yil			
1.	Yakkatol OshP binosini mukammal ta'mirlash va jihozlash	6231	1 150 000,0
2.	Bo'ston tuman Barkamol avlod bolalar markazi xojatxonasi va isitish tizimini ta'mirlash	2352	500 000,0
3.	48 DIM ichki fasadi va isitish tizimi ta'mirlash	1981	875 000,0
4.	JSX bo'limining asosiy binosini tom qismini ta'mirlash va yangi dorixona ombori tashkil qilish	1825	570 000,0
5.	Chiroq tushirish	1627	350 000,0
6.	4-Uzumta'lim maktabi deraza romlari almashtirish, bino fazad qizmini ta'mirlash	1612	400 000,0
7.	Qabrison tamirlash	1473	120 000,0
8.	Barkamol avlod bolalar maktabini hududini asfalt qilish ta'mirlash va darvoza oynalarini ta'mirlash	1109	450 000,0

9.	61-IDUM binosini joriy ta'mirlash va qo'rg'on devor qurish	970	250 000,0
10.	Bo'ston tumani Guliston MFY axolisi ichimlik suvi tortish	855	250 000,0
2023-yil			
1.	Bo'ston tumani TTB Yuqumli kasalliklar bo'limi poliklinikasini ta'mirlash	4309	1 150 000,0
2.	13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi 1 qavatli binosi ta'mirlash	4172	1 200 000,0
3.	11-umumta'lim maktabi yangi o'quv jihozlari, kompyuter sinifi, printer, proektor, interaktiv doskalar va laboratoriya jixozlari sotib olish	4088	450 000,0
4.	Yuksalish ko'chasining 3900 metrini asfaltlash	3375	1 320 000,0
5.	48-IDUM boshlang'ich maktabi uchun Qo'rg'on devon qorovulxona qurish	3370	900 000,0
6.	20-umumta'lim maktabidagi o'quvchi va o'qituvchi stol-stullar, doskalar, shkaflar, partalar sotib olish	3005	300 000,0
7.	Tibbiyot birlashmasi bo'lim va muasasalarini jixoz va inventarlarini yangilash	2578	1 300 000,0
8.	61-IDUM uchun yangi mebel jixozlar olish	2559	500 000,0
9.	Bo'ston tumani Yangiobod MFY hudidida joylashgan 25-umumta'lim maktabi o'quvchilarining ta'lim olish jarayoni sifatli tashkil etish maqsadida maktab binosini yaqim qismini ta'mirlash	2072	500 000,0

Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021-yili jami 7 ta loyiha g'olib deb topilgan va ularga 1 671 000 ming so'm pul mablag'lari sarflandi, 2022-yil 10 ta loyihalar "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibi deb topilib, bu loyihalarni moliyalashtirish uchun jami 5 678 573 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan, bunda jami ovozlar soni 20 035 tani tashkil qilgan, 2023-yilda 9ta oshiq loyihalar, 32 106 ta ovozlar soni bilan g'oliob bo'lgan va ushbu loyihalarga 7 533 585,6 ming so'm miqdordagi pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihalarining g'olib deb

topilganlar, yo'l tamiriga va umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash sohasiga, shu jumladan. Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi quyidagi jadvalda berilgan va 2023- yilda sohalar bo'yicha eng ko'p ovoz to'plangan, aksincha 2021-yilda bu ko'rsatkich past.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda. 2021-2023 yillarda Andijon viloyati Bo'z tumani bo'yicha amalga oshirilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayoni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim bir qadam bo'lib, jamiyatda davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi mahalliy davlat organlarining hisobdorligini oshirish, fuqarolarning fikrlarini inobatga olish va mahalliy darajada resurslarni optimal taqsimlashga yo'naltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida Andijon viloyati Bo'z tumani tashabbusli budjetlashtirish tizimini isloh etishda xalqaro rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, turli ijtimoiy, iqtisodiy va demografik sharoitlarni hisobga olgan holda quyidagi amaliy tajribalarni qo'llash mumkin:

1. Budjet jarayonida fuqarolar ishtirokini yanada kengaytirish: Tashabbusli budjetlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish uchun fuqarolarni tadbirlarda, ayniqsa, chekka hududlarda ko'proq ishtirok etishga jalb etish lozim. Bu orqali aholining ehtiyojlarini yanada yaxshiroq aniqlash mumkin.
2. Mahalliy byudjetni monitoring qilish tizimini kuchaytirish: Mahalliy byudjetning samarali va shaffof ishlatilishini ta'minlash uchun mustahkam monitoring tizimi joriy etish tavsiya etiladi. Bu tizim orqali aholiga ajratilgan mablag'larning qayerga yo'naltirilganligi haqida muntazam ma'lumot berib borilishi kerak.
3. Iqtisodiy tahlil va prognozlashning samaradorligini oshirish: Mahalliy davlat organlari iqtisodiy tahlil va prognozlashni kuchaytirishi, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitga moslashishda aniq qarorlar qabul qilishda yordam beradi.
4. Infratuzilma loyihalarini kengaytirish: Tuman hududida infratuzilma loyihalariga, ayniqsa, yo'l qurilishi, suv ta'minoti va kommunal xizmatlar sohasiga qo'shimcha mablag' ajratilishi talab qilinadi. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki aholining turmush sharoitini yaxshilashga ham hissa qo'shadi.
5. Mahalliy qarorlar qabul qilishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish: Yangi texnologiyalar va raqamli platformalar yordamida mahalliy byudjetni rejalashtirish va boshqarish jarayonlarini yanada samarali qilish mumkin. Bu orqali jarayonlarni tezlashtirish, aniq prognozlarni qilish va resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkoniyatlari yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, 30.01.2024 yildagi KQ-666-IV-son, Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida.
2. U.O'roqov. Mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari - Science and Education, 2022
4. U.O'roqov, D Uskenbaeva. O'zbekistonda tashabbusli byudjetni joriy etishning tashkiliy-huquqiy asoslari - Science and Education, 2022
5. O'roqov U., Irgashev I, G'aybullaev O. Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet. 2022
6. U.Y O'roqov, J.A Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary, 2022
7. Xaydarov N. Doxodi mestnix byudjetov i puti ix ukrepleniya. "Moliya" ilmiy jurnali. 2022.
8. Xaydarov N. Mahalliy byudjetlarning daromad manbalari. xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya 2022.
9. "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" (2021).
10. <https://openbudget.uz/boards/initiatives>
11. <https://lex.uz/ru/docs/-6790170>